

## MORFOLOGIYA VA UNING O'RGANISH OBYEKTI. SO'Z TURKUMLARI

**Morfologiya (grek. morhos «shakl», logos «ta'limot» so‘zlaridan olingan bo‘lib) so‘z shakllari haqidagi ta’limotdir.**

Leksikologiya leksik so‘z (leksema)larni, ularning atash ma’nolarini o‘rgansa, morfologiya so‘zning grammatik ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllarni, ya’ni so‘zning morfologik shakllarini o‘rganadi.

Grammatik ma’nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo‘limida o‘rganiladi.

So‘zlarning umumiy grammatik ma’nolariga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linishi so‘z turkumlari sanaladi.

Mustaqil so‘zlar	Yordamchi so‘zlar	Oraliqdagi so‘zlar
ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh	ko‘makchi, yuklama, bog‘lovchi	undov, modal, taqlid so‘zlar
Ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, atash va umumiy grammatik ma’noga (masalan, predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi) ega bo‘lgan so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi. Masalan, <i>gul</i> ( <i>nima?</i> ), <i>chol</i> ( <i>kim?</i> ), <i>chiroyli</i> ( <i>qanday?</i> ), <i>yuztacha</i> ( <i>nechta?</i> ), <i>keldi</i> ( <i>nima qildi?</i> ) kabi.	Ma’lum so‘roqqa javob bermaydigan, atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, faqat grammatik ma’no ifodalovchi, lekin o‘zidan oldin kelgan so‘zga grammatik shakl sifatida qo‘silib, u bilan bir lug‘aviy urg‘u ostida birlashmaydigan so‘zlarga yordamchi so‘zlar deyiladi. Masalan, <i>ammo</i> , <i>ham</i> , <i>faqat</i> , <i>-chi</i> ( <i>ayt-chi</i> ), <i>-mi</i> ( <i>siz-mi?</i> ) kabi.	Bulardan tashqari, mustaqil so‘zlarga ham, yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisiga xos belgini o‘zida ma’lum darajada aks ettiradigan oraliqdagi so‘zlar bor. Bunday so‘zlar undov so‘zlar, modal so‘zlar, taqlid so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

## FE'L

**BILIB OLING.** *Nima qilmoq?, nima bo'lmoq? so'-roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalagan so'z turkumi fe'l deyiladi.*

**ESDA SAQLANG.** Fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi.

## HARAKAT VA HOLAT FE'LLARI

**BILIB OLING.** **Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi.**

Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar harakat fe'llari deyiladi.  
Tasvirlamoq,kuylamoq,o'qimoq

Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar holat fe'llari deyiladi.  
O'ylamoq,sarg'aymoq

## O'TIMLI VA O'TIMSIZ FE'LLAR

Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanadigan fe'llar o'timli fe'llar deyiladi.  
(kitobni) o'qidi, (xatni) yozdi

Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lana olmaydigan fe'llar o'timsiz fe'llar deyiladi.  
(bog'da) ishladi, (oynadan) qaradi